



# “Involta” Ilmiy Jurnali

Vebsayt: <https://involta.uz/>

## YUQUMLI KASALLIKLARGA CHALINGAN BEMORLARGA IXTISOSLASHTIRILGAN HAMSHIRALIK YORDAMINI TASHKIL ETISH AHAMIYATI VA UNING XUSUSIYATLARI

**Xusanova Ma'mura Sheraliyevna**

OHI yo'nalishi magistratura rezidenti

**Karabayev Sanjar Abdusamatovaich**

PHD, v.v.b. dotsenti

**Mamasoliyeva Shoxista Abdugapparovna**

Katta o'qituvchi Samarqand davlat tibbiyat instituti, O'zbekiston

**Muammoning dolzarbliji.** Hozirgi davrga qadar va bugungi kunda bemorni o'z vaqtida kasaligini aniqlash va muolaja qilish nafaqat uning salomatligini tiklanishini ta'minlaydi, balki ko'proq infektsiyaning tarqalishini cheklashga yordam beradi, shuningdek inson salomatligini saqlashda va xavfsizligi muhofaza etishda muhim ahamiyatga egadir. Infektsiyali kasalliklarning rivojlanishi (patogenezi), klinik ko'rinishlari, laboratoriya diagnostikasining zamonaviy imkoniyatlari, davolash va oldini olish kabi bilimlarga ega bo'lish hamshiralik faoliyatining tub negizidir. Chunki bemorlarni davolashda shifokor bilan birlgilikda dastlabki muolaja bosqichlarini amalga oshiruvchi va bajaruvchi tibbiy xodim hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tibbiyat xodimlari, ixtisosligidan qat'i nazar, hamshiralalar bunday bilimga

ega bo'lishlari kerak, chunki ularning har biri kundalik ishlarida doimo yuqumli bemorlarga duch keladi. Har bir aniq holatda zarur bo'lgan epidemiyaga qarshi va profilaktika choralarini, shu jumladan o'zingizning yuqumli xavfsizligingizni ta'minlashga imkon beradigan umumiyligi va alohida epidemiologiyani bilish ham bir xil darajada muhimdir. Yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlarda hamshiralik ishini tashkil etish va takomillashtirish - aholi salomatligini mustahkamlashda asosiy bo'ginlardan biridir.

**Tadqiqot maqsadi:** - Yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlarga ixtisoslashtirilgan hamshiralik yordamini tashkil etish xususiyatlari va ularni takomillashtirishni o'rganish.

**Tadqiqot usuli** - so'rovnoma o'tkasish, kuzatish, statistik tahlil.

**Kalitli so'zlar:** bemor, infekstiya, yuqumli kasallik, hamshira, profilaktika, epidemiya

## **ЗНАЧЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ СЕСТРИНСКОЙ ПОМОЩИ БОЛЬНЫМ С ИНФЕКЦИОННЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ И ЕЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ**

**Хусанова Мамура Шералиевна**

магистра -резидент ВСД

**Карабаев Санжар Абдусаматоваич**

PHD, доцент и.о.

**Мамасолиева Шохиста Абдугаппаратовна**

Старший преподаватель Самаркандский государственный медицинский институт,

Узбекистан

**Актуальность.** До сих пор и сегодня своевременное выявление и лечение болезни пациента не только обеспечивает восстановление его здоровья, но и способствует ограничению дальнейшего распространения инфекции, имеет важное значение для сохранения здоровья и безопасности человека. Знание развития (патогенеза), клинических проявлений, современных возможностей лабораторной диагностики, лечения и профилактики инфекционных заболеваний составляет основу сестринского

дела. из них постоянно контактирует с инфекционными больными в своей повседневной работе. Не менее важно знать общую и частную эпидемиологию, что позволит обеспечить необходимые в каждом конкретном случае эпидемические и профилактические мероприятия, в том числе собственную инфекционную безопасность. Организация и совершенствование сестринского ухода за больными инфекционными заболеваниями является одним из ключевых звеньев в улучшении здоровья населения.

**Цель исследования:** - изучить особенности организации специализированной сестринской помощи больным с инфекционными заболеваниями и их совершенствования.

**Методы исследования:** опросы, теоретические и практические основы

**Ключевые слова:** пациент, инфекция, инфекционное заболевание, медсестра, профилактика, эпидемия.

## THE SIGNIFICANCE OF THE ORGANIZATION OF SPECIALIZED NURSING CARE FOR PATIENTS WITH INFECTIOUS DISEASES AND ITS CHARACTERISTICS

**Khusanova Mamura Sheralievna**

master-resident

**Karabayev Sanzhar Abdusamatovaich**

PHD, Associate Professor

**Mamasolieva Shokhista Abdugapparavna**

senior lecturer Samarkand State Medical Institute, Uzbekistan

**ACTUALITY.** Up to now and today, timely detection and treatment of a patient's illness not only ensures his or her health is restored, but also helps to limit the spread of further infection, and is important in maintaining human health and safety. Knowledge of the development (pathogenesis), clinical manifestations, modern possibilities of laboratory diagnosis, treatment and prevention of infectious diseases is the basis of nursing. it should be noted that health

workers, regardless of their specialization, nurses should have such knowledge, as each of them is constantly exposed to infectious patients in their daily work. It is equally important to know the general and specific epidemiology that will enable you to ensure the epidemic and preventive measures required in each specific case, including your own infectious safety. The organization and improvement of nursing care for patients with infectious diseases is one of the key links in improving the health of the population.

**The purpose of the study:** To study the features of the organization of specialized nursing care for patients with infectious diseases and their improvement.

**Research methods:** surveys, theoretical and practical foundations

**Keywords:** patient, infection, infectious disease, nurse, prevention, epidemic

Hamshiralik faoliyati - bu hamshiralar tomonidan tibbiy yordam ko'rsatish harakatlarining mohiyati, harakatlar etikasi va uni rivojlanish hamda takomillashtirish qonunlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni amalga oshirishdir. Hamshiralikning muhim xususiyati shundaki, u tibbiy muassasaning, jumladan yuqumli kasalliklar kasalxonaxida asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish bo'linmalari o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir majmuasini aks ettiradi. Ushbu bobda biz yuqumli kasalliklar tushunchasi, jumladan, ularning kelib chiqish sabablari, yuqumli kassaliklar etiologiyasi, patogenezi, shakllarining klinik tasnifi va oldini olish choralar haqida tarixiy ma'lumotlarni taqdim etamiz[1].


Yuqumli kasalliklar va immunoprofilaktika bo'limida ishlaydigan hamshira shifokorga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni tashkil etishda yordam beradi, laboratoriya tekshiruvlari uchun materiallar to'playdi, tibbiy ko'rsatmalar beradi, bemorlarning qarindoshlariga epidemiyaga qarshi qoidalarga rioya qilishni o'rgatadi va rejali dezinfeksiya qiladi.

YKvIB hamshirasi yuqumli kasalliklar bo'yicha mutaxassis rahbarligida ishlaydi. Jamiyat sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, shu jumladan sanitariya-epidemiologiya xizmatini rivojlantirish, yuqumli va yuqumli bo'lmagan surunkali kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish, Xalqaro tibbiy-sanitariya qoidalariini joriy etish va bajarish kontseptsianing asosiy vazivalaridan biri etib belgilandi. Shuningdek, 2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirish

samaradorligini aniqlashda tibbiyat va farmatsevtika kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek tibbiyat fanini rivojlantirish borasida ibbiyat hamshiralari uchun xalqaro standartlarga muvofiq yangilangan (isloh qilingan) o‘quv tibbiyat ta’lim muassasalari foizi 50 dan 90 foizga ko’tarish ko’zda tutildi[2.]

Bosh hamshira hamshiralik xizmati pog’onasining eng yuqori bo’g’ini sifatida muqarrar ravishda yuqumli kasalliklar shifoxonasining ichki bo’linmalari, shuningdek tashqi tashkilotlar vakillari bilan tashkiliy va shaxsiy munosabatlarga kirishadi.

Sog’liqni saqlash muassasalari, shu jumladan yuqumli kasalliklar shifoxonasi faoliyatining o’ziga xos xususiyatlariga (profiliga) qarab ularni sonini o’nlab bo’linmalargacha bo’linishi mumkin . Shu munosabat bilan, hamshiralik xizmati rahbari sifatida bosh hamshiraning tashkiliy munosabatlari tuzilmasi doimo o’zgarib turadi (1.-rasm).



**Rasm. 1. Yuqumli kasalliklar kasalxonasi bosh hamshirasining tashkiliy munosabatlari sxemasi**

Bosh hamshira, o’z navbatida, bo’ysunish ierarxiyasidagi kirish darajasining ya’ni boshlang’ich darajadagi boshlig'i hisoblanadi. Biroq, ba’zida butun tashkilotda hamshiralik xizmatining sifatini aniqlaydigan sog’liqni saqlash muassasalarining alohida bo’linmasi darajasida, shuningdek yuqumli kasalliklar shifoxonalarida hamshiralik xizmati rahbarining shaxsiy tashkiliy qobiliyatları mavjuddir. Shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda katta hamshiralalar chuqur qarama-qarshiliklar sharoitida ishlaydi[3,12]. Bir tomonidan, Hamshiralikni rivojlantirish dasturi umumiylar hamshiralalar va ayniqsa, hamshira-tashkilotchilar rolini yuqori baholaydi. Boshqa tomonidan, amalda muntazam yondashuv ustunlik qiladi: hamshiraning roli

faqat shifokor ko'rsatmalarni bajarishda tasvirlanadi. Rahbar lavozimini egallagan har bir mutaxassis ya'ni boshqaruvchi, shu jumladan tarkibiy bo'linmaning bosh hamshirasi o'z ishini lavozim tavsifi doirasida qurishi kerak. O'rta va kichik tibbiyot xodimlaridan bo'lgan xodimlarning lavozim yo'riqnomalari bosh hamshira tomonidan tuziladi, bunda bo'limlarning bosh hamshiralari ham faol ishtirok etishlari va vazifalarni aniqlashtirish va aniq taqsimlash masalalari bo'yicha o'z takliflarini kiritishlari mumkin. Katta hamshiralar uchun ish vazifa va majburiyatlarini muassasaning tarkibiy bo'linmalar rahbarlari yoki bosh hamshira tomonidan ishlab chiqiladi. Ko'rsatmalar davolash profilaktika muassasi rahbari ya'ni bizning tadqiqotda yuqumli kasalliklar kasalxonasi bosh shifokori tomonidan tasdiqlanadi va ma'lum bo'limlardan iborat bo'ladi. Oddiy ish tavsifi tuzilishi majburiy to'rtta bo'limlar iborat:

- Ma'muriyat(Umumiq qoidalar);
- lavozim majburiyatları;
- huquqlar;
- mas'uliyat.

Har xil turdag'i kasalliklarning, jumladan yuqumli kasalliklar kasalxonalarida oldini olishda hamshiraning ahamiyati muhim bo'lib , birinchi navbatda, ushbu hamshiraning o'rni va darajasiga bog'liqdir.

Hamshiralik aralashuvi shifokorning retsepti asosida va uning nazorati ostida amalga oshiriladi. Hamshira ijrochi vazifasini bajaradi va ularning ishi uchun mas'uliyat olib boradi, masalan: in'ektsiya qilish, diagnostik tadqiqotga tayyorgarlik ko'rish - sigmoidoskopiya, lomber ponksiyon. Jarayonga bo'liq bo'gan hamshiralik aralashuvi hamshiraning shifokor va boshqa mutaxassislar bilan birgalikdagi faoliyatini o'z ichiga oladi. Yuqumli kasallikning rivojlanishining asosiy qonuniyatları va namoyon bo'lishini bilish bilan yuqori sifatli yordam ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Yuqumli bemorlarga yordam ko'rsatishning o'ziga xos xususiyati tibbiyot xodimlarining yuqumli xavfsizligi va bemorlar va bu yuqumli kasalliklar epidemiologiyasini bilish bilan mumkin.

Yakuniy bosqich - hamshiralik jarayonining samaradorligini baholash. Xizmat sifati katta va bosh hamshiralar, hamshiraning o'zi (o'zini o'zi baholash) tomonidan baholanadi va albatta bunday holatlarda bemorning hamshiralik faoliyatini olib borish haqidagi fikrini hisobga oladi Adabiyotlarda qayd etilgan tadqiqot (TV Kudrina, 2007) natijasida shifoxonada hamshiralik xizmati ishining tashkiliy-funktsional modeli taklif qilinganligi o'rganildi, bu esa hamshiralik xizmatining sifati va samaradorligini doimiy ravishda yaxshilashni, shuningdek, tibbiy yordam ko'rsatish darajasini shuningdek, xodimlarning mehnat motivatsiyasi darajasi. oshirishni ta'minlaydi[4,5,6]. Tibbiy yordam sifatini oshirish uchun hamshiralar faoliyatini monitoring qilish va baholashdan foydalanilash kerak (N.F.Plavunov, Y.S.Gaboyan, 2003).[7,8,9] Hamshiralar faoliyatini monitoring qilish va baholash bo'yicha ishlab chiqilgan tashkiliy-funktsional model (Y.S.Gaboyan, 2010) shifoxonaning tibbiyot bo'limlaridagi hamshiralarning ishlash ko'rsatkichlarini, bemorlarning hamshiralik xizmatidan qoniqishini hamda shoshilinch tibbiy yordam va sanitariya-epidemiologiya rejimini ta'minlashda , bemorlarga xizmat ko'rsatish sifatini aks ettiradi[10].

**A D A B I Y O T L A R:**

1. B.M.Mamatkulov., X.E.Rustamova. Jamoada hamshiralik ishi –T.: «Fan va texnologiya», 2016,228bet.
2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.12.2018 yildagi PF-5590-son
3. Греков И.Г., Мурашова Е.П. Некоторые аспекты деятельности старшей медицинской сестры педиатрического отделения стационара по профилактике внутрибольничных инфекций // Главная медицинская сестра. - 2006. - № 10. - С. 63-70.
- 4.Кудрина Т.В., Рябчикова Т.В. Опыт организации работы Совета медицинских сестер в городской клинической больнице восстановительного лечения №5// Главная медицинская сестра. 2003, №4. - С. 23-33.
- 5.Кудрина Т.В. Разработка качественных показателей деятельности сестринского персонала в городской больнице восстановительного лечения г.Иваново (на примере

должности старшей медицинской сестры) // Главная медицинская сестра. 2006, № 1. - С. 31-34.

6.Кудрина Т.В. Организационно-функциональная модель сестринской службы учреждения восстановительного лечения в современных условиях // Автореф. дис. канд. мед.наук. - Иваново, 2017. - 24с.

7.Плавунов Н.Ф., Габоян Я.С. Возможности повышения качества работы сестринской службы стационара // Медицинская сестра. 2013, № 1. С. 34-35.

8.Габоян Я.С., Логвинова О.В. Организация деятельности сестринского персонала в отделении сестринского ухода // Медицинская сестра. 2006, №6. -С. 7-9.

9.Габоян Я.С. Контроль и оценка деятельности сестринского персонала лечебных отделений больницы // Автореф. дис. канд. мед.наук. -М.2010. -26с.

10. Филаткина, Наталья Вячеславовна Совершенствование организации сестринской медицинской помощи в условиях психоневрологического интерната Автореф. дис. канд. мед.наук. -М.2015.-155стр

11 Хейфец А.С. Старшая медицинская сестра - непосредственный руководитель и организатор работы сестринского и младшего медицинского персонала отделений ЛПУ // Главная медицинская сестра. - 2004. - № 1. - С. 16-23.